



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

O‘ZBEK TILIDA GENDERLINGVISTIK O‘XSHATISHLARNING LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI

Mamatqulova Ruxshona Xurshedovna

Samarqand davlat universiteti, 1-kurs magistranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada o‘zbek tilidagi o‘xshatishlarning genderlingvistik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda “O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati” materiallari asosida erkak va ayol obrazlariga nisbatan qo‘llaniladigan o‘xshatishlar semantik jihatdan o‘rganilgan. O‘xshatishlar uch guruhga: har ikki jins uchun umumiy bo‘lgan neytral birliklar, ayollarga xos va erkaklarga xos o‘xshatishlarga ajratilib, ularning ijobiy va salbiy baho ifodalashdagi o‘rni yoritilgan. Tahlil natijalari o‘zbek tilida gender stereotiplari va milliy tafakkur til vositalarida qanday aks etishini ko‘rsatib beradi..

Kalit so‘zlar: genderlingvistika, o‘xshatishlar, gender stereotiplar, semantika, erkak obrazi, ayol obrazi, o‘zbek tili, milliy tafakkur.

ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ГЕНДЕРЛИНГВИСТИЧЕСКИХ СРАВНЕНИЙ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Маматкулова Рухшона Хуршедовна

Самаркандский государственный университет, магистрант 1 курса

Аннотация

В данной статье анализируются гендерные лингвистические особенности сравнений в узбекском языке. Исследование изучает семантику сравнений, используемых в отношении образов мужского и женского пола. Сравнения разделены на три группы: нейтральные единицы, общие для обоих полов, женские и мужские сравнения, и подчеркивается их роль в выражении положительных и отрицательных оценок. Результаты анализа показывают, как гендерные стереотипы и национальная идеология отражаются в языковых средствах узбекского языка.

Ключевые слова: гендерная лингвистика, сравнения, гендерные стереотипы, семантика, мужской образ, женский образ, узбекский язык, национальное мировоззрение.

LEXICAL-SEMANTIC ANALYSIS OF GENDER-LINGUISTIC SIMILES IN THE UZBEK LANGUAGE

Mamatqulova Rukhshona Khurshedovna

Samarkand State University, 1st Year Master’s Student

Abstract

This article analyzes the gender linguistic features of similes in the Uzbek language. The study studies the semantics of similes used in relation to male and female images. The similes are divided into three groups: neutral units common to both genders, feminine and masculine similes, and their role in expressing positive and negative evaluations is highlighted. The results of the analysis show how gender stereotypes and national ideology are reflected in linguistic means in the Uzbek language.

Keywords: gender linguistics, similes, gender stereotypes, semantics, male image, female image, Uzbek language, national worldview.

Zamonaviy tilshunoslikda til birliklarini ijtimoiy, madaniy va psixologik omillar bilan uzviy bogʻliq holda tadqiq etish muhim ilmiy yoʻnalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, genderlingvistika doirasida til vositalarining erkak va ayol ongida, nutqida hamda madaniy tafakkurida qanday ifodalanishi masalasi alohida dolzarflik kasb etmoqda. Til nafaqat aloqa vositasi, balki jamiyatda shakllangan gender stereotiplarini, qadriyatlar va tasavvurlarni aks ettiruvchi ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida ham namoyon boʻladi. Oʻzbek tilining boy tasviriy vositalaridan biri boʻlgan oʻxshatishlar xalqning milliy dunyoqarashi, estetik tafakkuri va ijtimoiy tajribasini oʻzida mujassam etadi. Ayniqsa, “Oʻzbek tilining oʻxshatishlar lugʻati”da jamlangan birliklar erkak va ayol obraziga nisbatan shakllangan anʼanaviy qarashlar, baholovchi mezonlar hamda genderga xos semantik belgilarni aniqlash imkonini beradi. Ushbu lugʻat materiallari asosida olib borilgan tahlil oʻzbek tilida gender konseptlarining qanday lingvistik vositalar orqali ifodalanishini yoritishga xizmat qiladi. XX asrning oxirlariga kelib jahonda genderlingvistika boʻyicha qizgʻin ishlar olib borildi.

Hozirgi kunda esa tilshunoslikda gender tadqiqotlarini amalga oshirishga qiziqish kuchayib bormoqda, shuningdek, tilning jamiyatdagi oʻrni haqidagi gʻoyalar ham tubdan oʻzgardi [5]. Shu jumladan, oʻzbek tilshunosligida ham bir qancha izlanishlar amalga oshirildi. Masalan, M. Qurbonova [6], Sh. Iskandarova [3; 4], Z. Akbarova [1], N. Ahmedova [2]larning bu sohada tadqiqotlari bunga yorqin misol boʻla oladi. Genderlingvistik birliklarni tilning barcha sathlaridan topish mumkin. Jumladan, oʻzbek tilining boy xususiyatlarini oʻzida mujassamlashtirgan oʻxshatishlarda ham buni kuzatish mumkin. N. Mahmudov va D. Xudoyberganova tomonidan tuzilgan “Oʻzbek tili oʻxshatishlarining izohli lugʻati” kitobidagi ayrim oʻxshatishlarning gender xususiyatini koʻrib chiqamiz [8].

Avvalo, oʻxshatishlarga nazar tashlar ekanmiz, ularni gender xususiyatidan kelib chiqib quyidagi guruhlariga boʻlish mumkin:

1. Har ikkala jins vakillariga nisbatan ishlatiluvchi oʻxshatishlar.
2. Ayollarga nisbatan ishlatiluvchi oʻxshatishlar.
3. Erkaklarga nisbatan ishlatiluvchi oʻxshatishlar.

Lugʻatda berilgan oʻxshatishlarning juda katta qismini har ikkala jins uchun ham mos boʻlgan neytral oʻxshatishlar tashkil qiladi. Bunday oʻxshatishlar semantik jihatdan har ikki jins, yaʼni ayol va erkaklarga ham mos, farqsiz ishlatiladigan oʻxshatishlardir. Bularni maʼno jihatdan ayol va erkaklarning bir xil xususiyat-fazilatlarini, ruhiy holati, harakati-holatini bildiruvchi maʼno guruhlariga boʻlish mumkin. Guruhlar misolida koʻradigan boʻlsak:

1. Har ikki jins uchun birdek qoʻllaniluvchi ruhiy-psixik kayfiyat ifodalovchi oʻxshatishlar:

yosh boladay, boʻztoʻrgʻayday (boʻzlamogʻ), vulqonday (portlamogʻ), tilla topgan gadoyday, toʻrvasini yoʻqotgan gadoyday, jinniday va hokazo. Misol uchun:

1. *Onamning yosh boladek birovning mashinasiga tushib “kataysa” qilishi menga erish tuyildi.* (Oʻ. H. “Dunyoning ishlari”)
2. *Toʻrvasini yoʻqotgan gadoydek talmovsirab qopsiz.* (Oʻ. H. “Dunyoning ishlari”)

Shu kabi oʻxshatishlar ayollarda ham, erkaklarda ham mavjud boʻlgan ruhiy holatni koʻrsatuvchi, har ikkala jinsga ham mos boʻlgan oʻxshatishlardir. Bularni oʻz navbatida yana salbiy va ijobiy maʼno bildiruvchi guruhlariga ham boʻlish mumkin.

2. Har ikkala jins uchun birdek qoʻllanuvchi harakat-holat ifodalovchi oʻxshatishlar:

arvohday, ariday (gʻuvullamoq), ari chaqqanday, baqaday (qotmoq), begonaday, bulbulday, boʻzday, boʻzchining mokisiday, yetim qoʻziday, zafaranday, somonday (sargʻaymoq) va hokazo. Misol uchun:

1. *Zafarondek sargʻayurman, hasratingda qon yutib.* (Oʻ. H. “Dunyoning ishlari”)
2. *Bobom hamon tipirchilar, oyim rangi boʻzday oqargancha koʻzi yumuq, boshini bir tomonga tashlab oʻtirar, bobom yelkasidan tutib turmasa, gursillab yiqilishi aniq edi.* (Oʻ.

H. “Ikki eshik orasi”)

Bu kabi o‘xshatishlar erkaklarda ham, ayollarda ham bir xil kuzatiladigan harakat va holatlarni ifodalab keladi.

3. Har ikkala jins uchun birdek qo‘llaniluvchi xarakter-xususiyat ifodalovchi o‘xshatishlar:

buqalamunday, kaltakesakning dumiday, molday, musichaday, tulkiday, qo‘ydek va hokazo. Misol uchun:

1. *Qo‘ydek yuvosh Kimsan akamning jahli shunaqa yomonligini bilmagan ekanman!* (O‘. H. “Ikki eshik orasi”)
2. *Dushman bitta mina otib, o‘n bitta o‘zbekni qiyma-qiyma qilsin, bomba tashlab, dyadya Vasyaning ichagini boshiga salla qilib qo‘ysinda, men qo‘ydek yuvosh, musichadek beozor bo‘lib turaveraymi!* (O‘. H. “Ikki eshik orasi”)
3. *Huri yomon, haromxo‘r, lekin bu bechora kaltakesakning dumidek gap.* (O‘. H. “Dunyoning ishlari”)

Shunga o‘xshash o‘xshatishlar ayollar va erkaklardagi doimiy ruhiy-psixik holatlarni ifodalash uchun ishlatiladi. Bularni ham o‘z navbatida bildirgan ma’nosiga qarab salbiy va ijobiy ma’no bildiruvchi o‘xshatishlar deb guruhlariga ajratish mumkin. Yuqorida sanab o‘tilgan o‘xshatishlar semantik jihatdan ma’noviy guruhlariga bo‘lingan bo‘lib, ayollar va erkaklar uchun umumiy, jinsda farqlanmaydigan o‘xshatishlardir.

Ayollarga nisbatan qo‘llaniluvchi o‘xshatishlar bevosita boshqa shaxslar tomonidan ayollarga qarata ishlatiladigan, ularga xos bo‘lgan o‘xshatishlar bo‘lib, ularni ijobiy va salbiy jihatdan turlarga bo‘lish mumkin:

1. Ayollarga qarata salbiy ma’noda qo‘llaniluvchi o‘xshatishlar: erkakday, yalmog‘izday, devday, sigirday, ho‘kizday va boshqalar. Bular ayollarning erkaksifat yoki yomon xulq-atvoriga ega bo‘lgandagina ishlatiladi. Masalan:

1. *Sigirday xotinga atlas ko‘ylakni kim qo‘yibdi!* (O‘. H. “Ikki eshik orasi”)
2. *Faqat Parcha xolani yomon ko‘raman. Parcha xola — devday xotin.* (O‘. H. “Ikki eshik orasi”)
3. *Ko‘zingga qarasang o‘lasanmi, ho‘kizday xotin!* (O‘. H. “Ikki eshik orasi”)

2. Ayollarga nisbatan ijobiy ma’noda ishlatiladigan o‘xshatishlar: anorday, gulday, kiyikday, oyday, qalamday, g‘unchaday va boshqalar. Bular esa ayollarga xos tashqi go‘zallikni ijobiy ma’noda ifodalash uchun ishlatiladi. Ayollarga qarata ishlatiladigan o‘xshatishlarning juda katta qismi ularning tashqi chiroyi, ya’ni tana a’zolari va yuz go‘zalligini ifodalash uchun ishlatiladi:

1. *Siz sovunni nima qilasiz, kelinposhsha, o‘zingiz oydaysiz?!* (O‘. H. “O‘zbeklar”)
2. *Shundoq oydek xotin suyak tiqilib o‘lib qolsa deng.* (O‘. H. “Osmondan tushgan pul”)
3. *Guldek qiz edi, bechora!* (O‘. H. “Ikki eshik orasi”)
4. *Podadan oldin chang ko‘tarma, g‘unchaday xotiningni tashlab urush qilishni kim qo‘yibdi senga.* (O‘. H. “Ikki eshik orasi”)
5. *Kim bilsin, hali uyam urushga otlanib qoldimikin, guldek xotinini qon-qaqshatib...* (O‘. H. “Ikki eshik orasi”)

Bu gaplardagi o‘xshatishlarni ham bildirgan ma’nosiga ko‘ra turli semantik guruhlariga bo‘lish mumkin:

1) Umumiy go‘zallik bildiruvchi o‘xshatishlar: ohuday, kiyikday, malikaday, qo‘g‘irchoqday va hokazo. Bunday o‘xshatishlar insonlar ongida mavjud bo‘lgan ayollar haqidagi umumiy go‘zallik tasavvurini ko‘rsatib beradi. Ohu va kiyik kabi hayvonlar o‘zbek tilida husn va nafislik jihatidan ayollarga qiyos qilinadi. Malika va qo‘g‘irchoq so‘zlari esa noziklik, yasanib yurish kabi xususiyatlar bilan bog‘liq holda ayollarga nisbatan ko‘p ishlatiladi.

2) Qad-qomatning go‘zalligini ifodalovchi o‘xshatishlar: alifday, niholday, sarvday va hokazo. Misol uchun:

1. *Qiz sochini qaytadan o'rib, orqasiga tashladi-da, niholday nozik gavdasini egib, arava ichidan paxtalik nimcha olib kiydi.* (O'. H. "Muhabbat")

O'xshatishlarda ishlatiladigan alif, nihol, sarv so'zlari odatda tik, nozik, chiroyli qomat tasviriga ishora qiladi va u ayollarga xos latofat belgisi deb qaraladi.

3) Yuz go'zalligini ifodalash uchun ishlatiladigan o'xshatishlar: anorday, gulday, kulchaday, oyday, o'n to'rt kunlik oyday, olmaday va boshqalar. Misol uchun:

1. *Ne-ne oydek qizlar oyoqosti bo'пти, beshikdagi bolalar onasidan, onalar bolasidan ayrilibdi.* (O'. H. "Dunyoning ishlari")
2. *Oydek yuzingdan akang!* (O'. H. "Ikki eshik orasi")
3. *Gulday qizimizning bahosi shu bo'ldimi?* (O'. H. "Ikki eshik orasi")

Anor — qizilligi uchun, gul — chiroyligi va ko'zni quvontirgani uchun, kulcha — aylana va silliqliigi uchun, oy — umumiy go'zallik timsoli bo'lgani uchun, olma esa silliq, tortilgan va qizil bo'lgani sababli shunday xususiyatlarga ega ayollarga nisbatan qo'llaniladi.

4) Qoshni tasvirlaydigan o'xshatishlar: qalamday, qaldirg'ochday, qaldirg'och qanotiday, qilday, qunduzday va hokazo. Qalam tekis, qaldirg'och qanoti ingichka bo'lgani uchun bu o'xshatishlar ayollarning nozik qoshlariga nisbatan ishlatiladi:

1. *Mana shu o'smalar suvi bir vaqtlar uning qunduz qoshida yashnagan edi.* (O'. H. "Bahor qaytmaydi")
2. *Ranginamni sariq qilgan ul qalam qoshi...* (O'. H. "Bahor qaytmaydi")
3. *– Kofe? Ti? – dedi qildek qoshini uchirib.* (O'. H. "Bahor qaytmaydi")

5) Ko'zni tasvirlab keladigan o'xshatishlar: munchoqday, ohuday, charosday va hokazo. O'xshatishlarda ishlatiladigan "munchoq", "ohu" va "charos" kabi obrazlar turli semantik belgilarni ifodalaydi: munchoq — qop-qoraligi va yaltirab turishi, ohu — ko'zlarining kattaligi va uzunchoq shakli, charos esa qora, yirik va jozibali ko'z tasavvurini beradi. Shu sababli ushbu birliklar an'anaviy ravishda ayolning chiroyli ko'zlariga qiyos qilib qo'llanadi. Misol uchun:

1. *Munchoqdek ko'zlarini tikib uzoq qarab turdi-da, yana bir sayrab qanotini yozdi.* (O'. H. "Bahor qaytmaydi")
2. *Doim nimanidir kutganday bolalarcha javdirab turuvchi charos ko'zlar ham, chehrasiga allaqanday soddalikka mi, bo'shanglikkami o'xshash ifoda beruvchi qalinroq lablari ham o'zgarmabdi.* (O'. H. "Bahor qaytmaydi")

6) Labni tasvirlab keluvchi o'xshatishlar: gilosday, g'unchaday va boshqalar. O'xshatishlarda gilos qizillik semasi asosida qo'llanib, ko'pincha ayolning qizil, jilo berib turgan labiga qiyos qilinadi. G'uncha esa kichiklik, noziklik va qizillik belgilarini anglatuvchi obraz bo'lib, kichik va nozik lab tasvirini ifodalash uchun ishlatiladi: *Lablari xuddi gilos tishlab turganga o'xshaydi.* (O'. H. "Bahor qaytmaydi")

7) Shu kabi boshqa o'xshatishlar: guruchday — tishga nisbatan, ipakday — sochga nisbatan, marmarday — teriga nisbatan, no'xotday — xolga nisbatan. O'xshatishlarda guruch mayda va oq bo'lgani uchun tishning mayinligi va oq rangiga, ipak yumshoqligi sabab ayol sochining silliq va nafis tuzilishiga, marmar silliqliigi va yaltirab turishi tufayli terining tekisligi va tovlanishiga, no'xot esa o'leham jihatidan ayol yuzidagi xolga qiyos qilib qo'llanadi. Masalan:

1. *Alimardon uning marmarday oppoq, tarang yelkalarini ko'rdi-yu, beixtiyor o'rnidan turdi.* (O'. H. "Bahor qaytmaydi")
2. *Bo'ying osmonga ko'tarilishi bilan yonimga qoshlari ipdekkina, sochlari tilla kokildek, oyoqlari uzun-uzun, tizzasidan ikki qarich balandda to'xtab qolgan etak ostidan oppoqqina sonlari ko'rinib turgan xonimcha keldi. Og'izchasi angishvonadek.* (O'. H. "Bahor qaytmaydi")

Erkaklarga nisbatan qo'llaniluvchi o'xshatishlar bevosita boshqa shaxslar tomonidan erkaklarga qarata ishlatiladigan, ularga xos bo'lgan o'xshatishlar bo'lib, ularni ham ijobiy va

salbiy jihatdan turlarga bo'lish mumkin:

1. Erkaklarga qarata salbiy ma'noda qo'llaniluvchi o'xshatishlar: xo'rozday, xotinday, qizday, hezalakday va boshqalar. Bular erkaklarning ayolsifat yoki yomon xulq-atvoriga ega bo'lgandagina ishlatiladi. Misol uchun:

1. *O'zi hech baloni bilmaydi-da, tag'in xotinga o'xshab chiyillaydi.* (O'. H. "Ikki eshik orasi")
2. *Sanama-e, xotinga o'xshagan!* (O'. H. "Ikki eshik orasi")

2. Erkaklarga qarata ijobiy ma'noda qo'llaniluvchi o'xshatishlar: alpday, burgutday, chinorday, qoploday, devday, qo'chqorday, bo'riday va boshqalar. Bular esa erkaklarga xos jismoniy kuchni va xarakter xususiyatlarini ijobiy ma'noda ifodalab keladigan o'xshatishlardir. Misol uchun:

1. *Anvarning ko'ziga u hozirgina o'ljasini yeb, labini yalab turgan bo'riday ko'rinib ketdi.* (O'. H. "Bahor qaytmaydi")
2. *Xudo Iskandarimgayam qo'chqordek o'g'illar bersa ajabmas.* (O'. H. "Bahor qaytmaydi")
3. *O'n yasharligida "onangni ehtiyot qil" deganida yig'lamay yerga qarab turgan, xizmatga ketish oldida devdek yigit bo'lib yetilgan.* (O'. H. "Bahor qaytmaydi")

Erkaklarga qarata ishlatiladigan o'xshatishlarning katta qismi ulardagi kuch-quvvatni, qat'iyatni ifodalovchi ijobiy ma'noda ishlatiladigan o'xshatishlardir. Bunday o'xshatishlarni bildirgan ma'nosi va xususiyatiga qarab turli semantik guruhlarga bo'lish mumkin:

1) Erkaklardagi jismoniy baquvvatlikni, kuchli irodani hayvonlarga qiyosan tasvirlovchi o'xshatishlar: ayiqday, arsloday, burgutday, bo'riday, yo'lbarsday, xo'rozday, sherday, qoploday, qo'chqorday va hokazo. Misol uchun:

1. *Betonchi Safar aka ayiqdek lapanglab vagoncha tomonga birinchi bo'lib yurdi.* (O'. H. "Ikki eshik orasi")
2. *O'v! – dedi bo'ynini xo'rozdek cho'zib. – Raisman, deb ja o'zingdan ketma!* (O'. H. "Ikki eshik orasi")
3. *Qopqonga tushgan bo'ridek o'zini qay teshikka urishni bilmay qolgan dushmani oldingga solib quvishning zavqi qanaqa bo'lishini bilmaysan!* (O'. H. "Ikki eshik orasi")
4. *Erta-indin qo'chqordek o'g'il tug'ib beradigan xotiniga bitta ko'ylak oberolmaydigan er qanaqa o'zi!* (O'. H. "Ikki eshik orasi")

Erkaklarni ayrim hayvonlarga o'xshatishning maqsadi ushbu hayvonlarga xos kuch-quvvat, chaqqonlik yoki qat'iyat kabi belgilarni bo'rttirib ko'rsatish orqali erkakning fazilatlarini ulug'lash va obrazli tarzda tasvirlab berishdan iborat.

2) Erkaklardagi turli xususiyatlarni har xil narsalarga o'xshatish: chinorday, ketmonday, kurakday (belkurakday), gurziday va boshqalar. Misol uchun:

1. *Oqsoqol belkurakday kafti bilan tizzasiga urib, maza qilib kuldi.* (O'. H. "Ikki eshik orasi")
2. *Ko'ylagining yengini shimarib gurziday bilagini namoyish qilganicha, qiyiqchaga chang soldi.* (O'. H. "Ikki eshik orasi")

Bunday o'xshatishlar erkaklardagi o'ziga xos xususiyatlarni narsa-buyum va o'simliklarga o'xshatadi: chinor uzun bo'lgani uchun erkaklarning bo'yiga nisbatan qo'llaniladi; ketmon va kurak kengligi uchun erkaklarning kafti va yelkasiga nisbatan qo'llaniladi; gurzi og'irligi uchun erkaklarning qo'li yoki mushtiga qiyosan ishlatiladi.

3) Erkaklardagi umumiy ijobiy fazilatlarini (kuch-quvvat, xarakter, iroda jihatidan) dostonlardagi mashhur qahramonlar va afsonaviy jonzotlarga o'xshatish: devday, ajdarday, alpday, Alpomishday, Rustamday va boshqalar. Misol uchun:

1. *Parkat tomonda Rustam sherday qilich o'ynatib yursam, komandirimiz chaqirib qoldi.* (O'. H. "Dunyoning ishlari")

Bunday o'xshatishlarda erkaklardagi umumiy jihatlar dostonlardagi barchaga ma'lum

qahramonlar va jonzotlarga qiyoslanadi. Ularga jasurlik, dovyuraklik va jismoniy quvvat jihatidan model sifatida qaraladi. Umuman aytganda, erkaklarga nisbatan qoʻllaniladigan oʻxshatishlarning ham koʻpchiligi ijobiy maʼnoda qoʻllaniladigan oʻxshatishlardir.

Xulosa qilib aytganda, oʻzbek tilidagi oʻxshatishlar xalqning milliy-madaniy dunyoqarashi va gender haqidagi tasavvurlarini yaqqol aks ettiruvchi muhim lingvistik vosita hisoblanadi. Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, har ikki jinsga nisbatan qoʻllaniladigan neytral oʻxshatishlar insonning umumiy ruhiy holati, xarakteri va harakatlarini ifodalasa, ayollarga xos oʻxshatishlar asosan tashqi goʻzallik va nafislikni, erkaklarga xos oʻxshatishlar esa kuch-quvvat, jasorat va irodani ifodalashga xizmat qiladi. Bu holat til birliklari orqali jamiyatda shakllangan gender stereotiplari mustahkamlanishini koʻrsatadi. Mazkur tadqiqot natijalari genderlingvistika yoʻnalishida keyingi ilmiy izlanishlar uchun muhim manba boʻlib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Акбарова З. Ўзбек тилида мурожаат шакллари ва унинг лисоний тадқиқи: автореф. дис. ... канд. филол. наук. — Тошкент, 2007.
2. Аҳмедова Н. Ўзбек тилида мурожаат бирликларининг семантик-коннотатив тадқиқи: автореф. дис. ... канд. филол. наук. — Тошкент, 2008.
3. Искандарова Ш. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари: автореф. дис. ... канд. филол. наук. — Тошкент, 1993.
4. Искандарова Ш. Ўзбек тили лексикасини мазмуний майдон сифатида ўрганиш (шахс микромайдони): автореф. дис. ... д-ра филол. наук. — Тошкент, 1999.
5. Safarov Sh. Pragmalingvistika. — Toshkent, 2008.
6. Qurbonova M. Oʻzbek tilshunosligining dolzarb masalalari. — Toshkent, 2011.
7. Yusupova O. Tilshunoslik va tabiiy fanlar. — Samarqand: SamDU nashri, 2021.
8. Махмудов Н., Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. — Тошкент: Маънавият, 2013. — 320 б.
9. Ҳошимов Ў. Dunyoning ishlari: qissa va hikoyalar. — T.: Yangi asr avlodi, 2019. — 336 b.
10. Ҳошимов Ў. Ikki eshik orasi: roman. — T.: Sharq, 2012. — 624 b.
11. Ҳошимов Ў. Osmondan tushgan pul: hajviy hikoyalar. — T.: Ziyo nashr, 2019. — 160 b.
12. Ҳошимов Ў. Bahor qaytmaydi: qissa va hikoyalar. — T.: Yangi asr avlodi, 2016. — 280 b.
13. Ҳошимов Ў. Hurkitilgan tush: hikoyalar. — T.: Ziyo nashr, 2019. — 160 b.